

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**MAVZU: USMON AZIM SHE'RIYATIDA METONIMIYA VA UNING
USLUBIY XUSUSIYATLARI**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajardi: Berdiyeva N.

Ilmiy rahbar: dots.Suvonova R.

Malakaviy bitiruv ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2011–yil 20-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayonnomasi №____)

Kafedra mudiri:

prof.A.Abdusaidov

Malaviy bitiriv ishi YaDAKning 2011-yil ----- iyundagi majlisidahimoya
qilindi va ----- foizga baholandi (bayonnoma № ____)

YaDAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND - 2011

**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti filologiya
fakulteti bakalavri Jo'rayeva Shaxnozaning "Usmon Azim she'riyatida
metonimiya va uning uslubiy xususiyatlari" mavzusidagi malakaviy
bitiruv ishining**

REJASI:

Kirish.

Uslubiyat va badiiy tasvir vositalari.

- a) Uslubshunoslik sohasida erishilgan yutuqlar haqida.
- b) Bitiruv ishining maqsad va vazifalari.

I BOB

Ko'chimlar va metonimiya

- a) Ko'chimlar haqida qisqacha ma'lumot.
- b) Metonimiya va uning uslubiy xususiyatlari.

II BOB

Usmon Azim she'riyatida metonimiya

- a) Yozuvchi ijodidan metonimiyaga misollar topish va ularning tahlil talqinini berish.
- b) Yozuvchi ijodiga bir nazar va uning asarlarining tilshunoslikda tutgan o'rni.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

*O'zbek tilimizning boyligi,
nafosati va go'zalligi bilan biz
doimo faxrlanamiz. Tilning
tirikligi xalqning mavjudligidir*

Tafakkur gulshani

Bugungi jadal globallashuv jarayonlarida axborot kommunikasiya texnologiyalarining rivoji misli ko'rilmagan holatlarini qamragan bir tildan boshqasiga so'z o'tmasligini tasavvur etishni o'zi mushkul, shunday ekan tilimiz yanada boyib boradi, ravnaq topadi va go'zallashadi. Bu bugungi kunda dunyoning inkor etib bo'lmaydigan lisoniy mantiqiy haqiqatlaridan biridir.

Mavzuning dolzarbligi. Muhtaram Yurtboshimizning quyidagi so'zlari tilshunoslar, terminshunoslarga alohida mas'uliyat yuklaydi: “Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boyliklarimiz sifatida ona tilimizni asrab- avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur, ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar , tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish, milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz”.¹

Shunday ekan biz ham globallashuv jarayonida axborotkommunikatsiya texnologiyasi uchun o'z hissamizni qo'shib Usmon Azim she'riyatida badiiy

¹ Каримов И. “Юксак маънавият – енгилмас куч”. – Тошкент: Маънавият, 2008, 87-бет

tasvir vositalarini o'rganib chiqdik. Ularda metonimiyaga misollar jamlab tahlil qildik.

Badiiy asarda so'z faqat ifoda vositasi bo'lmay, balki u hayot haqiqatini obrazli ko'rsatish, tasvirlanayotgan voqeani estetik baholash uchun xizmat qiladi. Shu sababli so'z badiiy matnda faqat asarning mazmunini bayon etish hodisasi bo'lmay, ayni paytda ma'lum tasviriy vosita vazifasini bajaradi

Badiiy asar tilida tasviriy vosita juda qadimiy va keng qo'llanuvchi lingvistik xususiyatdir. Unda tilning rang-barang uslubiy imkoniyatlari o'z ifodasini topadi.

O'zbek tili uslubiyati sohasiga e'tibor va uni mukammal o'rganish 50-yillarda boshlandi. Bunday harakatning boshlanishida ham Ayub G'ulom va Sh.Shoabduraxmonovlar turdi. A.G'ulom 1941 yilda nashr etgan "O'zbek tilida kelishiklar" asarida xalq dostonlarida kelishiklarning ishlatilishidagi o'ziga xos xususiyatlariga keng to'xtalgan bo'lsa, Sh.Shoabduraxmonovning "Ravshan" dostonining tili va uslubi mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasi ayni shu muammoga bag'ishlangan dastlabki monografiya sanaladi. Shundan buyon o'zbek tilining turli funksional uslublarining monografik tadqiqiga bag'ishlangan o'nlab asarlar maydonga keldi. Ular ichida I.Qo'chqortoyevning "Badiiy nutq stilistikasi", A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamovlarning "O'zbek tili stilistikasi", R.Qo'ng'urovning "O'zbek tili stilistikasidan ocherklar", A.Shomaqsudovning "O'zbek adabiy tili stillari haqida", "O'zbek tili stilistikasidan", B.O'rinboyevning "O'zbek tili so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari", A.Mamajonovning qo'shma gap stilistikasiga bag'ishlangan bir qancha asarlari, B.Turdialiyevning gazeta tili morfologik xususiyatlariga, B.Yo'ldoshev, S.Karimovning badiiy uslub, B.Umrqulovning publisistik

uslubiga, Yo.Tojiyevning affikslar uslubiyatiga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek tili stilistikasining takomillashuviga olib keldi.

I.Toshaliyevning “O'zbek tili uslubiyati”, “Adabiy tahrirning mantiqiy asoslari”, E.Qilichevning “O'zbek tilining amaliy stilistikasi o'quv qo'llanmasining nashr etilishi oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida uslubiyat fanining o'qitilishini yaxshilashda imkoniyat yaratdi”.²

Davrlar o'tishi bilan ijtimoiy siyosiy hayotda yangilanish bo'lgani sari badiiy tilda ham yangicha jilolar paydo bo'ladi. Tasviriy vositalar yangicha mazmun kasb etadi. Tilning o'ziga xos uslubiy bo'yoqlarini namoyon etadi.

Shu sababli ham sintatik figuralar va ko'chimlarni yozuvchilarning tili va uslubi doirasida o'rganish filologiya, xususan tilshunoslik fani oldida hamisha dolzarb va muhim masalalardan biri bo'lib qoladi.

Shuning uchun ham tilshunoslikda badiiy tasvir vositalarini o'rganishga katta e'tibor bilan qaralmoqda.

O'zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyoti, uning vazifaviy doirasining kengayib borishi bilan xarakterlanadi. O'zbek tilshunosligida vazifaviy uslublarni o'rganish, tilning uslubiy tomonlarini belgilash bo'yicha bir necha tadqiqotlar olib borildi. Buning natijasida ilmiy asarlar va ilmiy maqolalar maydonga keldi. Shular asosida o'zbek tili uslubiyati mustaqil fan sifatida shakllana bordi.

O'zbek tili uslubiyati o'zbek tilshunosligining ham ishlangan qiziqarli sohalaridan biri desak xato qilmaymiz.

Badiiy adabiyot tili ham adabiy til materiallaridan, qonun-qoidalaridan, uslubiy me'yorlaridan, rang-barang bo'yoqlaridan umumiy oziqlanadi. Umumxalq tilining lug'aviy, iboraviy, uslubiy va grammatik xususiyatlarini hisobga olmay tilni va xalqimizning tilini o'ziga xosligini aniqlab bo'lmaydi.

2. Нурманов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент., 2002, 213-215-бетлар

Uslubiyatning vazifasi jonli nutqimizning rang-barangligi, bo'yoqdorligi va nozikliklarini mukammal ifodalash, uni milliy xususiyatlarini ochib nutqimizning, barcha boyliklarini tinglovchiga yetkazishdir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Keyingi yillarda uslubiyat sohasida ham qator muvaffaqiyatlarga erishildi. Jumladan, bizning fakultetimizning ustoz domlalaridan R.Qo'ng'urov, B.O'rinboyev, S.Karimov, T.Qurbonov, T.Jo'rayev, R.Suvonova, Sh.Maxmadiyevlar nomzodlik va doktorlik mavzularini uslubiyatga bag'ishladilar. Uslubiyat tilshunoslikning eng qiziqarli sohalaridan biri bo'lib, o'zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili muammolarini yechishda, badiiy tasvir vositalarini asarlarda namoyon bo'lish xususiyatlarini tobora oydin tasavur qilishga ko'maklashmoqda.

So'z san'ati, ifoda vositalari haqidagi alohida bir fandır.

Badiiy asar tiliga bag'ishlangan va uslubiyat nuqtai-nazaridan bajarilgan ilmiy ishlar ichida tasviriyl vositadan, ma'no ko'chishining turli so'zlari tadqiq etilgan tadqiqotlar bizning e'tiborimizni tortadi. Ayniqsa, metafora-metonimiya va sinekdoxa kabi tasviriyl vositalarning ma'lum bir ijodkor asarlari tilidagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish ham mas'uliyatli ham qiziqarlidir.

Ishning amaliyl ahamiyati. Biz bugungi jajji tadqiqotimizning mavzusini ko'chimning bir turi bo'lgan metonimiyaga bag'ishladik. Uni so'z turkumlariga ko'ra xoslanishini ko'rib chiqamiz va ot va fel so'z turkumlariga ko'proq to'xtalib nazariyl fikrlarimizni Usmon Azim she'riyatidan misollar tahlili bilan isbotlaymiz. Bu borada yuzdan ortiq misollarni kartateka qildim va ularni tahlili, bitiruv ishida o'z ifodasini topadi. Metonomiyaga to'plangan masalalarni sanog'I ko'paydi va mazmuni yanada boyidi.

Bitiruv ishi ushbu kirish qismidan tashqari ikki asosiy bob, xulosa va ishning so'ngida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Uslubiyat –tilning murakkab tomonlarini o'rgatadi. Shuning uchun ham u fonetika, leksikologiya, grammatika bilan chambarchas bog'liqdir. Uslubiyatning vazifalarini professor A.I.Efemov o'zining “stilistika russkogo yazika” asarida shunday ko'rsatadi: “Stilistikaning bosh vazifasi tasviriy vositalarning badiiy va boshqa asarlar stilida qanday funksiyalarni bajarishni o'rganishdir. Stilistik funksiya- deganda esa so'zlar, iboralarning tasvirlashdagi roli ijtimoiy sharoitga bog'liq bo'lgan ishlatilish maqsadini anglashini tushunmoq lozim”³.

Uslubiyat - nutqning eng yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, she'r qilib belgilaydi, nutqning turli uslubiy qatlamlarida qo'llaniladigan vositalarini belgilab beradi.

Shunga ko'ra uslubiyat so'z san'ati ifoda vositalari haqidagi alohida bir fandir. Ana shu fan haqidagi tushunchalarimizning boyib borishida tilshunos olimlarimiz va yozuvchilarimizning xizmati beqiyosdir.

Bitiruv ishning maqsad va vazifasi. Uslubiyat – nutqning eng yaqin va muvofiq vositasini tavsiya etadi., me'yor qilib belgilaydi. Nutqning turli uslubiy qatlamlarida qo'llanmalardan vositalarini belgilab beradi. Shunga ko'ra uslubiyat so'z san'ati ifoda vositalari haqidagi alohida bir fandir. Hozirgi kunda uslubiyat sohasida tadqiq etilgan tadqiqotlar bizning e'tiborimizni tortdi. Ayniqsa, metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi tasviriy vositalar va o'xshatishlar ham ijodkor asari tilidagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda ham mas'uliyatli va ham qiziqarlidir. Ana shu fan haqidagi tushunchalarimizning boyib borishida tilshunos olimlarimiz va yozuvchilarimizning xizmati benihoyatdir. Shulardan biri Usmon Azim

³ Кўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982, 167-бет.

she'riyatidir. Uning ijodidan metonimiyaga misollar tanladik va imkon qadar tahlil qilib o'z maqsadimizga erishdik. Ularning katta mehnati tufayli o'zbek tilining ko'pgina sohalarida qat'iy me'yorlar belgilaydi, til birikmalarining aloqa jarayonidagi insoniy namunalari tavsiya etiladi.

Til taraqqiyotidagi ko'pgina masalalar ilmiy nazariy asosda qo'yildi. Masalan: dastlab o'zbek tilida tasviriy vositalar, ko'chimlar bo'yicha hal qilinadigan masalalariga ham e'tibor berilar edi. Keyinchalik bu sohalardan biriga ko'chirish yoki so'zlarni shu maqsadda, umuman ko'chma ma'noda (asossiz ma'noga emas), ishlatilishiga troplar (ko'chimlar) deyiladi.

Ko'chimlar ko'proq og'zaki nutq uchun xarakterli hodisadir. Ulardan zo'rma-zo'raki foydalanib bo'lmaydi, nutqni buzishi mumkin. Ularga yozuvchi yoki notiq zarurat tug'ilgandagina murojaat qilishi lozim. Aks holda ular badiiy qimmatni oshirish o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Ko'chim (trop)lar qo'yidagi asosiy turlarga bo'linadi: Metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet (sifatlash) o'xshatish, jonlantirish, simvol, allegoriya, giperbola, litota, perifraza, antifraza, ironiyalardir.⁴

Badiiy tasvir vositalaridan biz kuzatishlarimizni metonomiyaga qaratib uni so'z turkumlariga ko'ra xoslanishini ko'rib o'tamiz.

Metonimiya – grekcha “metonyumiya” so'zidan olingan bo'lib boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. Metaforaga o'xshash tropning asosiy turlaridan biri bo'lgan metonimiya ham so'zlarning, ko'chma ma'nosida asoslanadi.

Metaforada bir-birlariga o'xshash predmet va ularning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinish yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham ammo, umuman

⁴. Кўнгулов Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977, 13-бет.

bir-biridan farq qiluvchi predmetlar belgilari chog'ishtiriladi. Masalan: Ra'no Anvarga xat yozib yuboradi va gapning qolganini Fuzuliydan o'qirsiz, deydi (A.Qodiriy "Mehrobdan chayon"). Bunda muallifning nomi uning asari o'rniga ko'chgan uning nomi bilan qo'llanadi.

Yoki darsdan so'ng A.Qodiriyning olish uchun do'stimning uyiga bordim gapida ham asar avtor nomi bilan qo'llanilgan.

Umuman metonimiyada biror narsa ichidagi predmetning ma'nosi, o'sha narsaga o'tkaziladi. Masalan: Bir piyola ichdim. Bir tovoq tushurdim, "piyola", "choy" ma'nosida tovoq esa "osh" ma'nosida keltirilgan. Yoki muallif nomi asar o'rnida qo'llanilishi mumkin: Navoiyni o'qidim, Oybekni o'qidim: yana harakat natijasi shu harakatni bajaruvchi qurol nomi bilan almashtiriladi. Masalan: mazkur gaplarning hammasi ustoz S.Ayniy qalamiga tegishli. Yoki yana:

***Besh asrkim nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir sher
Temur tig'i yetmagan joyini
Qalam bilan oldi Alisher***

Biror narsani u yasalgan material bilan almashtirish mumkin:

***Endi senga timol aytay bir avlon
O'lmas po'lat beldi, egniga qalqon***

Ma'lum bir hududda, qishloqda yashab turgan kishilar ma'nosi shu yerga qishloq yoki hududda ko'chiriladi. Yanvarning 15 larida butun qishloq to'g'on qurilishiga otlandi (Oybek "Oltin vodiya shabadalar")⁵.

⁵. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977, 19-бет.

Til azaldan umumxalq o'rtasida aloqa, xabar va estetik vazifani farqlab kelgan. Inson ongining shakllanib borishi, nutq va muomala madaniyatining rivojlanishi tilning estetik qimmatini oshirib borishiga xizmati oshirib borishiga xizmat qilgan. Tilning estetik deyilganda so'zlovchi yoki ijodkorning o'z fikrini tinglovchi yoki o'quvchiga ixcham, aniq va ta'sirchan tarzda yetkazishi tushuniladi. Tilning estetik ta'sir kuchini o'stirish uchun odatda badiiy hikoyalar, badiiy tasviriylar vositalaridan foydalaniladi.

Tilning ta'sirchanligiga erishish yozma va og'zaki nutqda juda qadimiy hodisadir. Turkiy yozma adabiyotining yirik vakili Yusuf Xos Xojib shunday yozadi:

So'zning yaqshi so'zla, edi saqnu o'z,
Ayitiqta so'zla, yana takrin o'z.
O'qish so'z eshitgil, tilim so'zlama,
O'qish bizla so'zla, bilig birla tuz

Mazmuni:

O'zing juda o'ylab so'zni yaxshi so'zla,
So'raganda so'zla, yana tezlikda tamom qil.
So'zni ko'p eshitgin, lekin ortiq so'zlama,
Idrok bilan so'zla, bilim bilan andozala

Demak, idrok bilan so'zlash va so'zga andoza berish so'zlayotgan kishidan katta mas'uliyat talab qiladi. So'zga andoza berish unga ma'no va mazmun, ya'ni ayni paytda badiiy libos kiygizdirishdir. Yusuf Xos Xojib so'zga andoza berishni nazarda tutganida voqelikni badiiy tasvir bilan ifodalashni e'tibordan chetda qoldirmagan. Turkiy til ustasidan bir necha asr

keyin rus olimlaridan biri ham shunday yozgan edi: “Til (soʻz) har qanday faktning, har qanday fikrning libosidir”.

Badiiy til adabiy asarning mazmunini ochadi. Badiiy tilning asosiy xususiyati unda tasviriylilik va emotsionallikning mavjudligidir.⁶ Buni shu maʼnoda anglash kerakki, ilmiy asarlar tili voqelikni murakkabligi bilan tasvirlaydi va shu voqelik haqida oʻquvchida his-hayajon uygʻotadi. Demak, ilmiy dalillar inson aqliga badiiy til uning hissiyotiga, qalbiga taʼsir oʻtkazadi.

Bu badiiy tilning tasviriyligidir. Badiiy tilning tasvirligi emotsionalligi yozuvchi tasvirlayotgan voqea hodisalarga xos belgilarga mos soʻzlarni tanlay bilishi natijasida yuzaga keladi. Yozuvchi bayon etayotgan fikrini loʻnda va aniq qilib, tushuntirishga harakat qiladi. Soʻzning oʻz maʼnosidan tashqari uning yangi, baʼzan aks maʼnolarini topishga erishadi. Baʼzan bir soʻzning bir necha maʼnolarini kashf etadi. Demak, badiiy til va uning tasviriyligi hamda emotsionalligi yozuvchining soʻz ustida ishlash mahoratiga koʻp jihatdan bogʻliqligidir. Soʻzlarning koʻp maʼnoli xususiyati polisemiya hodisasi hisoblanadi.

Badiiy asarda soʻzlarning oʻz maʼnosida ishlatilishi bilan birga tasvirlanayotgan voqelikning mohiyatini ochish uchun soʻzning turli maʼnolarda tovlanishi tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikda maxsus oʻrganib kelinadi. Masalan: Mirtojiyev yozishicha, “Tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdanoq olimlar diqqatini oʻziga jalb qilib keldi”. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan oʻrganishdi. Tilchilarimizning qayd etishicha bu masala bilan Xitoy va Hind olimlari eramizning boshlarida esa yunonlar ham shugʻullanishgan ekan.⁷

⁶. Юсуф Хос Хожиб. Кутадгу билиг. // Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. – Т.: Фан., 1972, 21-бет.

⁷. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Т.: Фан, 1975.

So'zlarning turli ma'nolarda tovlanishi qadimgi turkiy til boyliklariga bag'ishlangan asarlarda ham o'rganilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asarlarida bunday hodisani kuzatish mumkin.

So'zlarning rang-barang ma'nolarda kelishi adabiy matnlarni tahlil etishjarayonida aniqlanadi. So'zning o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanilishi tilshunoslik va adabiyotshunoslikda trop atamasi bilan yuritilgan. Badiiy tildagi bunday hodisani R.Qo'ng'urov shunday izohlaydi: "Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarni shu maqsadda, umuman ko'chma ma'noda ishlatishga troplar deyiladi".

So'z yoki so'z birikmasining o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanilishini trop atamasi bilan nomlash tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikka oid darslik hamda qo'llanmalarda, adabiyotshunoslik lug'atlarida ham uchraydi. Troplar adabiyotshunoslikda boshqacha nom bilan yuritilgan holatlar ham mavjud. Masalan: N.Shukurov va boshqa olimlar tomonidan yaratilgan "Adabiyotshunoslikka kirish darsligida troplash ko'chim atamasi bilan ham izohlanadi. So'zning ko'chma ma'nosi adabiyotda ko'chim (trop) termini bilan ifodalanadi. Demak, bu ta'rifda atama yuzaga kelishiga so'zning o'z ma'nosidan boshqa ma'noga o'tishi, ko'chishi asos qilib olingan. Bunday tarifga troplarning vazifasi, xususiyatidan kelib chiqib, o'zbek tiliga moslashtirilishi asos qilib olingan. Trop jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligida atama sifatida qabul qilingan tushunchadir. Asli grek tilida paydo bo'lgan bu atamaning barcha tillardagi atamashunoslik lug'atlarida ta'rif va tavsiflari mavjud. So'ngi yillarda o'zbek tilida yaratilgan atamashunoslik lug'atlarida troplar ko'chim

atamasi bilan ham yonma-yon tarzda qo'llanilmoqda. Bu atama haqidagi tasavvurlar mutaxassislarimizda yetarli bo'lsa-da, o'rganilayotgan masalaning mohiyatini to'laroq ochish maqsadida atamashunoslik lug'atlaridagi ta'riflarning birini keltirish o'rinli deb o'ylaymiz.

Troplar – biror narsa yoki hodisani ifodalash uchun so'z yoki so'z birikmalarining o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanilishini anglatuvchi tushuncha. Ko'chma ma'noda qo'llanilgan so'zning o'z va ko'chma ma'nosining munosabati hamda ularning narsa yoki voqelikka bo'lgan munosabatiga qarab ko'chimlar bir necha turlarga bo'linadi. Ulardan eng asosiylari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, litota, simvol va hokazolar. Bizning ongimizda qandaydir xususiyatlari, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki narsa yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish troplarga asos qilinib olinadi. Boshqacha aytganda, biror narsa yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unda boshqa biror narsa yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi. Ko'chim umuman tilga xos hodisa bo'lib, u so'zning qo'llanish doirasini, uning ma'no tovlanishlarini boyitadi. Shuning uchun ko'chimlarning badiiy nutqda ishlatilishi, ifodalilikni, ta'sirchanlikni oshirishga, tasvirlanayotgan voqea-hodisani ravshanroq, baholashda yordam beradi..

Ko'chim tufayli badiiy nutqning turli stilistik vazifalari kuchayadi. Shuning uchun ham ko'chimlar jonli til bilan birga, badiiy adabiyotda ham g'oyat keng qo'llaniladigan maxsus tasviriy vositalaridandir.⁸

Bizningcha ushbu ta'rifda troplar va ularning turlarining vazifasi juda to'g'ri asoslangan. Eng muhimi troplar til hodisasi sifatida baholanmoqda, ularning badiiy nutqning stilistik vazifalarini kuchaytirish ta'kidlanmoqda.

⁸. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. ____ 320-бет.

“Adabiyot nazariyasi” kitobida esa troplar majoziy obraz yaratishning vositasi sifatida qaraladi va u “Majoz nomi bilan umumlashtiriladi. Jumladan ushbu manbada shunday ta’rif keltirilgan “majoz” (arabcha ko’chim) terminini ham o’z lug’aviy ma’nosiga ko’ra shuni anglatadi. Uni Yevropa filologiyasida “trop” (grekcha aylanish, ifoda usuli, obraz) deb ataydilar. Bu izohda atamashunoslik lug’atidagi izohdan farqli o’laroq majoz (trop, ko’chim)ning asl ma’nosi ifoda usuli va obraz tushunchasi bilan ham bog’lanmoqda. Agar troplarning qadimiy asl ma’nosiga nazar solinsa uning vazifasi to’liq namoyon bo’ladi. Ya’ni grek tilidagi asl mazmun:

- 1) Aylanish – so’zining o’z ma’nosidan boshqa ma’noga aylanib o’tishi.
- 2) Ifoda usuli voqelikni ifodalashning o’ziga xos ko’rinishi.
- 3) Obraz – so’z orqali obraz, poetik manzara yaratish belgisi.

Trop va uning turlari paydo bo’lishining tarixi badiiy so’z san’ati tarixi bilan bog’liqdir. Badiiy so’z troplarsiz yuzaga kelishi mumkin emas. Shu jihatdan qaraganda ko’chim va uning turlari qadimdan har bir xalq adabiyotida o’ziga xos nom bilan atalgan. “Adabiyot nazariyasi” kitobida trop – majozlarning sharq adabiyotlaridagi an’analari xususida fikr yuritiladi. Unda metonimiya “majoz mursal” deb ataydilar. Mumtoz adabiyotimizda metonimiya va metaforani bir-biridan farqlab birini istora (metofara) ikkinchisini esa “majoz mursal” (metonimiya) deb ataydilar.

Jahondagi rang-barang tillar dunyosining tirikchilik tarixi shuni ko’rsatadiki, tilning taraqqiyoti barcha davrlarda siyosiy tizimining milliy tilga qanday munosabatda bo’lishiga bog’liq bo’lgan.

Prezidentimiz boshchiligidagi O’zbekiston davlati olib borayotgan til siyosati – o’zbek tiliga, shuningdek yurtimizdagi boshqa tillarga munosabat o’zining odilonaligi, demokratik mezonlarga tayanishi ilmiy asosda egaligi uning barkamol avlod tarbiyasida favqulodda muhim qurollardan biri deb

hisoblanishi bilan taxsinga loyiqdir. Til odamga tabiat in'om qilgan bebaho boylikdir. Uni maxluqot to'dasidan insoniyat rutbasiga oliy sinf o'laroq ayirgan qudratdir. Til faqat muloqot quroli emas u inson ma'naviy dunyosini betakror tirgagidir.

Tilimizdagi vositalarning nechalab ko'rinishlariga ega bo'lishi semantik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu qatlam nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini taqazo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlashi zaruratini va ularni tilshunoslikda ilmiy amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltiradi.

O'zbek tili uslublarini vazifaviy jihatdan tasnif qilish amalda til va tildan tashqarida bo'lgan omillarga tayanadi. Bu uslublarning N.A.Baskakov, A.Sulaymonov, A.Shomaqsudov, G'.Abdurahmonov, B.O'rinboyev, S.Muhammadiyevlar tavsiya etilgan qatlamlarida qo'llaniladigan vositalarni belgilab beradi. Shunga ko'ra stilistika so'z san'ati ifoda vositalar haqidagi bir janrdir. Tildagi ana shunday muammolar bilan shug'ullanadigan uslubshunoslikning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

1. Tilning leksik resurslari o'rganuvchi yo'nalish.
2. Funktsional stilistika vazifaviy uslubshunoslik.
3. Badiiy adabiyot uslublari.
4. Amaliy uslubshunoslik .

Mavzu nuqtai nazaridan bu o'rinda bizni vazifaviy uslubshunoslik qiziqtiradi. Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha foydalanganlarida avvalo ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib nutq mavzuiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. O'zbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan stilistika uslubshunoslik til birligining aloqa ustasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda

qo'llanilishi nutqni tashkil qilish qonuniyatlari tili tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma'no nozikliklarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Stilistika tilda mavjud bo'lgan barcha vositalar, leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini ma'lum bir tipdagi forma, so'z va konstruksiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanligini yaxshi va eng muvofiq, vositasi sifatida tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli variantlari mavjud bo'lib, ularda asosan beshta uslub – so'zlashuv, ommabop, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar e'tirof etilgan bo'lib, ular haqida bilimga ega bo'lish talabalarga tilimizning nutq jarayonidagi imkoniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

O'zining boy tarixi va lug'at boyligiga ega bo'lgan o'zbek tili, o'z navbatida nutq jarayonida qo'llanishning ham bitmas-tuganmas imkoniyatlariga ega. O'zbek tilining hozirgi taraqqiyot bosqichi uning barcha asrlarda stilistik va tasviriylik imkoniyatlarining kengligidan dalolat beradi: ta'lim jarayonida uning ana shu stilistik resurslar bilan tanishtirib borish, ulardan nutqiy jarayonda foydalanish sirlarini o'rganish fanni o'qitish oldida turgan muhim vazifa tilning barcha qatlamlarida bir xil emas. Tasviriylik oz yoki ko'p bo'lishidan qat'iy nazar ularning barchasi muhim bir vazifaga nutqning to'g'ri, aniq mantiqiy ta'sirchan xullas mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Shu yo'l orqali funksional jihatdan farq qiladigan har bir uslubi o'zaro bog'liqlikda aniq ifoda bilan hamda tarixiy shakllangan va an'anaviy muomala muhiti bilan doimo aloqada bo'lgan tilning barcha sathlarida so'zlashishning alohida aktlarida shaklida amalga oshiriladigan vositalar bilan yaratiladi. Nutq ta'sirchan aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi uchun

undan foydalanuvchi tilning stilistik resurslari va me'yorlarini yaxshi bilishi lozim.⁹

Tilshunoslikda ko'chma ma'no hosil qiluvchi so'zlarni tasniflash va ularni nomlash boshqa yo'sinda ko'rinadi.

M.Mirtojiyev o'z risolasida bunday tasniflarni umumlashtirgan. Shunday bo'lsada ko'chma ma'no hosil qiluvchi so'zlarni tasniflagan tilshunoslarning ayrimlarini ishlariga e'tiborni qaratish o'rinlidir. Bu muammo jahon tilshunoslarining ayrimlarining ishlariga e'tiborni qaratish o'rinlidir. Bu muammo jahon tilshunoslarining doimiy e'tiboridagi hodisadir. Masalan fransuz tilshunosi J.Maruzo ko'chma ma'noli so'zlarni uch turga metafora, metonimiya, sinekdoxa ga ajratadi. Rus tilshunosi L.A.Buxolovskiy esa ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisani olti turga bo'lgan. 1) Metafora, 2) Vazifadoshlik, 3) Emotsionallik, 4) Metonimiya, 5) Xalq etimologiyasi sifatida 6) Aloqadorlik. L.A.Buxolovskiy sinekdoxani metonimiyaning bir ko'rinishi deb hisoblaydi.

Tilshunos K.A.Levkovskaya ko'chma ma'no hosil qiluvchi so'zlarni faqat metonimiya deb tushunadi: N.M.Shanskiy esa ko'chma ma'noli so'zlarni uch turga 1) o'xshashlik (metafora) 2) yondoshlik (metonimiya) 3) vazifadoshlikka ajratib o'rganadi. O'zbek tilshunosi O.Azizovning "Tilshunoslikka kirish" darsligida esa sinekdoxani metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida ko'rsatiladi. Demak, yuqoridagi asarlarda, shuningdek, biz kutgan ayrim manbalarda ham ko'chma ma'no hosil qiluvchi so'z yoki so'z birikmasi haqida fikr yuritilganda asosiy metafora va metonimiya e'tirof etilgan. Sinekdoxa esa ko'chma ma'no hosil qiluvchi ikkinchi hodisa sifatida

⁹ Каримов С. Ўзбек тили услубшунослигининг ҳозирги босқичлари муомалалари. //Маърузалар матни, 68-бет.

o'rganiladi va asosan u metonimiyaning bir turi sifatida qaraladi va ba'zan unga qo'shilib yuboriladi¹⁰.

Bizningcha, ko'p ma'noli so'z va birikmalar hosil qiluvchi til hodisalarini faqat uch turga metafora, metonimiya, sinekdoxa bilan cheklanish unchalik to'g'ri emas. Negadir o'zbek tilida polisemiya hodisasining tadqiqotchisi M.Mirtojiyev ham jahon tilshunoslarining bu masaladagi qarashlarini ma'qullaydi ya'ni o'z tadqiqotiga boshqa ko'p ma'noli til hodisalari xususida fikr yuritmaydilar. O'zbek tilida trop, ko'chim yoki majoziy vositalar nomi bilan ifodalangan hodisalar faqat uch turni tashkil etmay, ularning hammasida ham ko'p ma'nolik alomatlari mavjuddir. Albatta bu o'rinda o'zbek tilining barcha tasviriyy vositalarini sanab o'tmoqchi emasmiz. O'zbek tilining tasviriyy vositalari deyilganda tilshunoslikda mavjud stilistik figuralar esa ma'no va shakl tuzilishiga ko'ra doimiy o'zgarmaslik xususiyatiga egadir. Demak, troplar so'zlarning ko'p ma'noli, so'zlarning boshqa ma'nolarga ko'chishi xususiyatlariga ega. Figuralarda bunday hodisa kuzatilmaydi. Ammo stilistik figuralar (antiteza, gradasiya, ritorik so'roq, ellipsis, takror, epifora va boshqalar) troplarni to'ldirish, undagi mazmunga aniqlik kiritishga ham xizmat qiladi¹¹.

Metafora, metonimiya va sinekdoxa troplarning asosiy, badiiy tilda keng qo'llanilgan turidir. R.Qo'ng'urovning "O'zbek tilining tasviriyy vositalari" kitobida troplarning yana bir necha turlarni jumladan, yuqoridagi uch turidan tashqari epitet (sifatlash) o'xshatish perifraz, ironiya, antifraza giperbola (mubolag'a), simvol, litota, jonlantirish kabi turlarini keltirgan. "O'zbek tili stilistikasi" da shunday troplarning bu turlari to'g'risida fikr

¹⁰ Кўнғиров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. _____12-109 бетлар.

¹¹ Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. _____ 236-246 бетлар.

yuritiladi. Troplarning bunday turlari va ularning badiiy tildagi xususiyatlari S.Karimovning risolasida ham yoritilgan. Ko'p ma'nolilik hodisasi sifatida troplarning faqat metafora, metonimiya va sinekdoxa turlariga xos xususiyati.¹²

Yoki boshqa turlarida ham shu hodisani kuzatish mumkinmi?

Tropning turlaridan biri simvoldir. Unga "O'zbek tilining stilistikasi"da shunday ta'rif beriladi: "Badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va predmetlar ifodasi uchun so'zlarning ma'lum ravishda ko'chma ma'noda ishlatilishi simvol deyiladi". A.Oripovning "Alisher" she'rida simvolning badiiy tildagi yaxshi namunasi berilgan.

Tun bilan tong erur tashbehda udum,

Misoli zahru may, hajri shakar lab.

Kimnidir quyoshday eslasa

Kimnidir zulmatday yurarlar qarg'ab.

Tong va tun majoziy tasvir sifatiga badiiy tilda keng qo'llaniladi. Tong – quvnoqlik, baxt, shodlik, yaxshilik ramzidir. Unga qarshi o'laroq tun so'zi yomonlik baxtsizlik, o'lim, mudhish voqeaning ramzini ifodalaydi. Demak tong va tun tropning simvol turi sifatida ko'p ma'nolik xususiyatiga ega ekanligi o'z-o'zidan namoyon bo'ladi. A.Oripov qalamiga mansub parchada ham tong va tun simvolining ko'p ma'nolik xususiyatini ochgan. Tong yaxshi, odamlarga baxt-saodat bergan, tun odamlar boshiga musibat yog'dirgan kishilarning majoziy darajasiga ko'tarilgan. Yuqoridagi parchadagi "Zahru may" "xajru shakar" so'z birikmalarida ham ko'p ma'nolilik xususiyati mavjuddir. Biz ushbu ishimizda troplarning barcha to'plamida

¹² Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. _____ 7-41 бетлар.

ko'p ma'nolilik xususiyatlari mavjudmi yoki yo'qmi? - degan masalani yoritishni asosiy maqsad qilib olganimiz yo'q.

Bu masala keng o'rganilish lozim bo'lgan hodisalardan hisoblansa-da biz mavzu talabi taqazosi bilan troplarning ko'p ma'nolilik xususiyatlari haqidagi masalani tilshunoslarimizning navbatdagi vazifalaridan bir sifatida ta'kidlanish bilan chetlanamiz.

Troplarning turlari rang-barang bo'lganidek, ularning har biri ham badiiy tilda o'z vazifasi va maqsadiga ega. Albatta, ularning o'rtasida yaqinlik, bir-biriga bog'lanish hodisalari ham yo'q emas. Badiiy adabiyot qadimiy tarixga ega bo'lganidek, so'z san'ati bilan birga tug'ilgan troplarning turlari ham o'zlarining nomlanish, shakllanish va bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'lish tarixga ega.¹³ Troplarning badiiy tilda ko'p uchraydigan turlaridan biri metonimiya. Metonimiya va uning badiiy asar tilidagi o'rnini o'rganish jarayonida troplar va ularning turlari badiiy asarda qay darajada tasviriylilik va emotsionallik vazifasini bajarish mumkin.

Metonimiyaning badiiy tilda qanday hodisa ekanligini tasavvur etish uchun masalaning mohiyatiga quyidagicha yondashish maqsadga muvofiqdir.

1. Sharq adabiyotlarida tasviriylilik vositalari.
2. Atamashunoslik, lug'atlar va darslik qo'llanmalarda metonimiya hodisasining nazariy jihatdan o'rganish.
3. O'zbek tilshunosligida metonimiyaning ilmiy tadqiqot doirasida o'rganish.
4. Metonimiyaning boshqa tasviriylilik vositalari bilan aloqasi va farqi.
5. Metonimiyaning lingvistik tabiati.

¹³. Шомақсудов А. ва бошқалар. “Ўзбек тили стилистикаси”. 245-бет.

Metonimiya soʻz maʼnosi taraqqiyoti bilan bogʻliq hodisalardan biridir. Maʼno taraqqiyoti esa turli koʻrinishlarga ega boʻladi. Soʻz maʼnosi oʻz ifoda doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi, shuningdek, mavhum holatda kelishi yoki aniq ifodaga ega boʻlishi mumkin¹⁴.

Metonimiya hodisasini qanday tushunish lozimligi haqida adabiyotshunoslar ham, tilshunoslar ham oʻz fikrlarini ilgari surishgan. Tilshunoslarning unga munosabat bildirishida metonimiyaning til birikmalardagi semantik hodisa bilan bogʻliq ekanligining taʼsiri bittadir.

Tilshunoslikda metonimiyaning oʻrnini belgilashda turlicha qarashlar mavjud. Juda koʻp tilshunoslar uni polisemiyaning bir koʻrinishi deb qaraydilar. Metonimiya soʻz semantik taraqqiyoti deb qaralar ekan, uning natijasi bilan polisemiyaning yuzaga kelishi oʻrtasida bogʻliqlik borligi inkor etilmaydi.

Metonimiya soʻzining maʼlum maʼnosidagi taraqqiyoti hisoblanadi. (Masalan: soʻzning maʼlum maʼnosidagi taraqqiyoti hisoblanadi) Masalan bet soʻzi “yuz” leksik maʼnosining “chet”, “qirgʻoq”, “yuza”, “sahifa” kabi maʼnolari hosilasi asosida bir necha leksik maʼnoga ega boʻlishi polisemiyaadir. Qogʻoz soʻzi yozuv ashyosi leksik maʼnosidan “Hujjat” leksik maʼnosini hosil qilishi metonimiya deb qaraldi.

Metonimiya maʼno kengayishining bir koʻrinishi sifatida ham talqin qilinadi. Ular muayyan bir soʻzning semantik taraqqiyoti ekanligi bilan oʻzaro aloqador ammo lingvistik hodisa nuqtai nazaridan farq qiladi.¹⁵

Ushbu tadqiqotda metonimiyalarni har bir soʻz turkumi boʻyicha alohida koʻrib chiqish va bunda M.Mirtojiyev qarashlaridan foydalanish

¹⁴ Орипов А. “Муножот”, “Сайланма”.– Т.: F.Фулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1992. 143-бет.

¹⁵ Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. _____ 15-бет.

ma'kul ko'rildi. Lekin til hodisasi va nutq hodisasi bo'lgan metonimiyalarni alohida-alohida ajratib o'rganish rejalashtirilmadi. Chunki bunda ko'pgina takrorlarga yo'l ko'yilishi ma'lum bo'ldi va shu sababli mazkur tamoyilga amal qilinmadi. Ammo yo'l - yo'lakay tahlilda til va nutq hodisasiga ishora qilib ketish mo'ljallandi. Metonimiya sodir bo'lishidagi ekstralingvistik va intralingvistik omillarga ushbu bobda e'tibor berilmadi. Chunki u keyingi bobda oydinlashadi¹⁶.

Metonimiya hodisasi asosan ot turkumida keng tarqalgan. Buning ustiga metonimiyaga xos belgilar ot turkumlaridagi ma'no ko'chishida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Shuning uchun ko'pgina asarlarda tilshunoslar metonimiyani ot turkumidan olingan metonimiyalar doirasida tahlil etishga harakat qilganlar.

Uning ko'rinishlarini ajratganda ham ko'proq ot turkumida sodir bo'lgan metonimiyalarga ustuvorlik berilgan. Shuning uchun birinchi o'rinda ot metonimiyalarni taqlil etish maqsadga muvofiq bo'lgan.

Ot turkumidagi metonimiyalar atoqli otlar doirasida salmoqli miqdorda uchraydi. Buning ustiga, u turli sabablarga ko'ra sodir bo'lishi kuzatiladi. Metonimiyaning atoqli otlar da sodir bo'lishi boshqa qosila ma'no beruvchi so'zlar ichida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Chunki atoqli otlarda qosila ma'noning yuzaga kelishi metonimiyadan tashqari ko'rinishlarda kuzatilmaydi. Jumladan:

Atoqli otlarda metonimiyaning sodir bo'lishi til qodisasi sifatida faqat bir qoldagina qayd etiladi. Qolgan qolatlarda esa nutq qodisasi sifatida uchraydi.

¹⁶ Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. –Т.: Ўқитувчи, 1970, 26-бет.

Kishi nomida joyning atalishi metonimiya bo'lib, bu lingvistik hodisadir. Masalan: *Ikki daryo tutashgan joyga / Oybek deya ko'yibsizlar nom* (A Oripov). Bu gaidagi *Oybek* so'zi asli taniqli yozuvchining nomi. Mazkur she'rda shu nom bilan joy atalgan. *Oybek* so'zining bu ma'nosi mazkur misrani tarkib toptirgan gapda yuzaga kelmagan, balki unda namoyon bo'lgan. Bu hosila ma'noning yuzaga kelishi garchi metonimiya deb atalsa ham, bu ikki ma'no asosida ikki so'z mavjuddir: biri - yozuvchi nomi, ikkinchisi - joy nomi. Ammo metonimiyaga ko'ra hosila ma'no yuzaga kelar ekan, bu jarayon polisemantik so'zni tarkib toptiradi. Yuqorida esa rasmiyat nuqtai nazaridan ikki so'z sifatida qayd etilgan edi.

Navoiy va *Furqat* so'zlari ham shoirning, ham shaqarning nomi. *Xamza* ham shoir, ham tumanning nomi, *Mo'minov* ham olim, ham ko'chaning nomi holatida ko'llanadi. Xalq yoki joy nomida kishining nomi bo'lishi va mazkur sababga ko'ra metonimiyaning sodir bo'lishi lingvistik qodisa qisoblanadi.

Masalan: *O'zbek, Qozoq, Kirgiz* degan kishi nomlari o'zbek tilida ko'plab uchraydi.

Kishi nomlarining hosila ma'no berishi ko'proq nutqiy holatda kuzatiladi deb aytiygan edi. Bunda kishilarning kashfiyoti, xarakteri, ramziy tomonlari uning asari va hokazolarga kuchiriladi va oqibatda metonimiya sodir bo'ladi. Masalan, yozuvchilarga xos asarlarni uning nomi bilan qayd etish orqali metonimiya yuz berishi mumkin. Bunda nutq tarkibidagi aniqlanmish – asar bilan bog'liq so'z ellipsisga uchragani uchun nutqda uning aniqlovchisi - yozuvchi nomida "asar" ma'nosi o'z ifodasini topgan bo'ladi: *Chol-chi, ko'zoynagin artgancha bot-bot kitob varaqdaydi: Bedilmi, Mashrab* (A.Oripov).

Menga Pushkin bir jahonu

Menga Bayron bir jahon.

(E.Voqidov).

Bu misralardagi *Bedil, Mashrab, Pushkin, Bayron* kabi atoqli otlar metonimik hosila ma'no bilan ifodalangan. Ular shu shoirlarga xos asar ma'nosida ko'llangan, yaratuvchisiga oid asar ma'nosini beruvchi atoqli ot faqat shoirlar nomidan iborat bo'lib qolmay, turli alloma va kashfiyotchi nomini ham bildirishi mumkin:

*O'qidim Gerodot tarixin ko'p bor,
Forobiy, Danteni takror va takror.*

Bu misralardagi *Gerodot, Forobiy, Dante* so'zlari shu allomalarga oid asar ma'nosida ko'llangan. Yuqoridagiga o'xshash metonimik qodisalar o'z ifodasini topgan.

Atoqli ot shu atoqli otda ifodalangan allomaning kashfiyoti ma'nosida ham ko'llanadi: *Bu kun Abu Rayhonga ta'zimda ekan jahon* (A.Oripov). Bu gapdagi *Abu Rayhon* atoqli oti Abu Rayhon kashfiyoti ma'nosini bergan. Ayrim shaxslar o'z kasbi, xarakteri, kechmishi bilan shu sohaning ramzi bo'lib qoladi va ularning nomi nutqda o'sha ramz ma'nosida ko'llanishi kuzatiladi: *Ulug' mamlakatning sardaftarida* (A.Oripov). Bu misralardagi *furqat* so'zi "vatanidan judo bo'lgan kishi" ma'nosida, *Otello* so'zi "aldangan rashkchi" ma'nosida, *Yago* so'zi "ig'vogar" ma'nosida, *Nurxon, Sora* so'zlari "aktyor ayol" ma'nosida ko'llangan. Atoqli ot asar nomi va shu nom qayd etilgan kitob ma'nosida ko'llanishi mumkin: *Ko'ltikda Dante bilan uning ortidan chopdim* (A.Oripov). Bu gapda *Dante* so'zi "Dante yaratgan «Iloqiy komediya» ma'nosida ko'llangan.

Joy nomi va joy baxtdiruvchi so'zlarda metonimiya sodir bo'lishi nutqda ko'plab uchraydi. Ayniqsa, joy nomini bildiruvchi so'zlar o'sha joyda ishlab chiqarilgan maqsulotni bildirishi orqali metonimiya sodir bo'lar ekan, bu jarayon til qodisasi sifatida kuzatiladi. Masalan: *Korako'l* so'zi asli

Buxorodagi bir tumanning nomidir. U qozir ko'zi terisidan ishlangan jingalak yungly mo'ynani bildiradi. Bunday mo'yna olinadigan ko'zilar dastlab shu tuman da yetishtirilgan. Bu qosila ma'no joy munosabatiga ko'ra yuzaga kelgan. Yana *shivirgon, katako'rg'on, g'ulja, uchqora* kabi joy nomlari ham bor. Bu nomlar kelib chiqishi jiqatidan o'sha joylar bilan aloqador bo'lgan uzum navlarini ham ifodalaydigan bo'lgan, ya'ni metonimiya qodisasi kechgan. Yana Samarqand shahri nomida olma navi ham bor. Bu keltirilgan misollarning barchasi til qodisasi bo'lgan metonimiyaga xosdir.

Joy nomi bilan o'sha joyda yashovchi aqolini atash orqali ham metonimiya sodir bo'ladi. Lekin ular deyarli nutqiy qodisa sifatida kuzatiladi:

Agar kerak bo'lsa, Sharqni va G'arbni

Yolg'iz bir she'riga eta olur jo (A.Oripov).

Bu gapdagi *Sharq* va *G'arb* so'zlari o'sha yerlarda yashovchi barcha aqolini ifoda etgan. *Toshkent chikdi Shastri yo'lga* (E.Voqidov). Bu gapda ham *Toshkent* so'zi Toshkent aqolisini ifoda etgan. Quyidagi misolda berilgan *Osiyo* so'zini ham shunday izoqlash mumkin: *Zabtga olib keng Osiyoni. U bir zot chikdi mag'rur, davangir.* (A.Oripov). Joy nomi, ayrim qollarda, o'sha joyga oid kishini ham bildirishi mumkin: *Tanladi Kavkazning napoq, bo'rkini.* (A.Oripov) Bu gapdagi *Kavkaz* so'zi "kavkaz kishisi" ma'nosida ko'llangan.

Umuman joy bildiruvchi so'zlar o'sha joyda yashovchi aqolini ifoda etishi bilan metonimiya sodir bo'lishi mumkin: *Saroy yo'lga chikdi savlati bilan* (A.Oripov), *Korloq g'ala-g'ovur, soldatni kutar* (Uyg'un). Bu gapdagi *saroy, qorloq* so'zlari o'sha joydagi aqolini bildirgan, ya'ni metonimiyaga uchragan. Ba'zan joy bildiruvchi otlar faqat shu joyga oid aqolini emas, qar qanday subyektlarni ifoda etishi ham mumkin.

Joy nomi bilan unda yashaydigan aqoli ifodalanar va metonimiya sodir bo'lar ekan, bu nom ma'lum xududni bildiradi. Bunga *shahar, qishloq, tuman, vodiya, mahalla, O'zbekiston, viloyat* so'zlaridagi metonimiyani ko'rsatish mumkin. Yuqorida unga misollar keltirildi. Ularning hammasida ham qosila ma'no aqolini bildiradi. Yana *korxona, muassasa, saroy, zal* kabi joy nomlari ham metonimiyaga uchrashi, odamlarni bildiruvchi qosila ma'noga ega bo'lishi kuzatiladi. Masalan: *Klub mudiri zalni ikki marta tartibga chaqirdi* (A.Qaqqor), *Gavjum bosmaxona* (O.Xrjiyeva) gaplaridagi *zal* va *bosmaxona* so'zi metonimik ma'no -"odamlar" ni bildirib kelgan.

Javob berar bunga na yer, na osmol (A.Oripov). Bu misoldagi *yer* so'zi yerdagi aql egalari, *osmon* so'zida esa iloqiy subyektlar ifoda etilgan. Bu sabablarga ko'ra barcha metonimiyalar faqat nutqiy qodisa sifatida sodir bo'ladi.

Nutqiy qodisa sifatida sodir bo'lgan metonimiyalar -joy nomini bildiruvchi so'zlar vatan ma'nosini bildirishi orqali ham, xaritada o'sha joylarni ko'rsatuvchi shartli belgini ifoda etadigan metonimik ma'noni bildirmoqda.

Ayrim qollarda jonomi vaqt ifodasini bildiruvchi metonimik ma'noni qosil qilishi mumkin: *Baytingga bir bora qovushgan har lab/ TakrorLrbketgusi Mashhargacha to* (A.Oripov).

Umuman joy munosabatiga ko'ra metonimiya sodir bo'lishini til hodisasi qavda nutq qodisasi sifatida kuzatish mumkin. M.Mirtojiyev til qodisasi sifatidagi bunday metonimiyaga *bosh* so'zida qosila ma'no yuzaga kelishini misol tariqasida keltirgan: *Akl yoshda emas, boshda* (maqol). Bu gapdagi *bosh* so'zi, "miya" metonimik ma'nosini berganligi va bu esa til hodisasi bo'lgan metonimik hosila ma'noni yuzaga keltirganligini ko'rsatgan. Yana shunga o'xshash *gal* so'zining ulfatlar galma-gal beradigan "ziyofat"

ma'nosini, *dil* so'zi "jon" ma'nosini ifoda etishini ham til hodisasi bo'lgan metonimiyaga misol tariqasida keltirgan. Ana shu sababga ko'ra nutqiy metonimiyalar sodir bo'lishi ham aytilgan edi. Masalan: *U eshikdan chiqib, oyog'ini qidirib qoldi*. Bu gapdagi *oyoq* so'zi "oyoq kiyimi" ma'nosida ko'llangan va shu nutqning o'zigagina xosdir.

Shu tarzda nutqiy metonimiyaning sodir bo'lishi o'zbek tilida uncha ko'p tarqalmagan. U og'zaki nutqda uchrab tursa ham, yozma nutqda deyarli kuzatilmaydi. Shuning uchun ham biz to'plagan materiallar ichida unga oid misollar kam bo'lib chikdi.

Joy munosabatiga ko'ra metonimiyaning sodir bo'lishi ancha keng tarqalgan. So'zlar leksik ma'no jiqatdan taraqqiy etib, joy bildiruvchi qosila ma'noni yuzaga keltiradi, kishining bir a'zosi nomi bilan joy ifodalanadi. Bunda kishining biror a'zosi o'zi o'riashgan joy bilan tutash joyni nomdosh qilib oladi. O'sha tutash joyni bildirgan hosila ma'no yuzaga kelishi joy munosabatiga ko'ra sodir bo'lgan metonimiya hisoblanadi. Masalan: *Xoji Kumushning boshiga kelib o'tirdi* (A.Kodiriy), *U har qachon yonboshimda* (U. Nosir), *Ulug'lar qoshida goh bo'ldi joyim* (A.Oripov) gaplarida *bosh* so'zi *bosh* bilan tutash, *yonbosh* so'zi *yonbosh* bilan tutash, *qosh* so'zi *qosh* bilan tutash joyni ifoda etgan. Hosila ma'no joy aloqadorligiga ko'ra yuzaga kelgan.

Hosil qiluvchi va hosila ma'no o'rin ifodalamagani holda ma'no hosil bo'lishi o'rin munosabatiga ko'ra bo'ladi. Masalan: *Tinmay og'riydi boshim/ Ko'z ochishg'a mador yo'q* (Zulfiya), *Oq qogozim senga / Erkin ochdi pinxon ishqini* (E.Voqidov). Bu gaplardan birinchisida *bosh* so'zi "miya" ma'nosida, *qog'oz* so'zi "asar" ma'nosida ko'llangan. Chunki *bosh* va *qog'ozda* o'rnashgan qosila ma'no shu o'rnashish o'rniga ko'ra yuzaga kelgan.

Ayrim narsalar va ularning qajmi o'rnashgan buyumi nomi bilan atalishi ham metonimiyani yuzaga keltiradi. Bunda ham o'rin munosabati metonimiya sodir bo'lishi uchun sabab qisoblanadi: *Xotinining hay-haylashiga qaramay ikki piyolani ustma-ust shimirdi* (A.Kdqqr), *Bir stakan ichdi* (N.Shukurov), *Bir six yedi* (N.Shukurov). Bu gaplarning birinchisida *piyola* so'zi shu hajmdagi ichkilik, ikkinchi gapdagi *stakan* so'zi shu hajmdagi ichkilik, uchinchi misoldagi *six* so'zi shu chamadagi kabob hosila ma'nolarini yuzaga keltirgan. Bularning yuzaga kelishida ham o'rin munosabati ahamiyatga ega bo'lgan.

Buyum nomi bilan joy atalishi orqali ham metonimiya sodir bo'lishi mumkin: *Mamajon yalqov samovarda yotib tush ko'radi* (G'. Gulom). Bu gapdagi *samovar* so'zining leksik ma'nosi buyumni bildiradi. Uning qosila ma'nosi esa shu buyum o'rnashishiga asoslangan maishat joyini bildiradi. Bu o'rinda hosila ma'no o'rin munosabatiga ko'ra yuzaga kelganligi uchun u metonimiya hodisasi deb qaraladi.

Matbuot vositasi nomi bilan undagi nashr atalishi ham metonimiyadir: *Gazetani o'qiydir shatir* (U.Nosir). Bu gapdagi *gazeta* so'zi undagi nashr qilingan narsani ifoda etgan. Material gazetada joylashganligi uchun u *gazeta* nomi bilan atalgan.

O'simlik nomi bilan u o'rnashgan joy atalishi mumkin. Masalan: *Rayhon chopib o'tirgan ayam bir dan voyvoylab, qo'ymichini ushlaganicha o'zini rayxonning ichiga tashlab yubordi* (A.Qahhor). Bu gapdagi birinchi *rayhon* so'zi o'simlikni emas, u ko'karib turgan ariqni anglatuvchi hosila ma'noga ega. Bu qolatning aksini kuzatish ham mumkin. Usimlik joy nomi bilan atalib, metonimiya qosil qilishi kuzatiladi: *Yer ekkuvchi dehqonlarning holini ham xo'p o'ylang* (Cho'lpon). Bu gapda *yer* so'zi ekin ma'nosini bildirgan.

O'rin munosabatiga ko'ra sodir bo'lgan metonimiyalar, asosan, nutqiy qolatda kuzatiladi. Chunki ularni nutq jarayoni yuzaga keltiradi.

Shaxs o'ziga oid bo'lgan xarakterli narsasi, buyumi, kiyimi nomi bilan atalishi orqali metonimiya sodir bo'ladi. Bunday metonimiyalar ham odatda nutkda kuzatiladi. Ular til hodisasi sifatida uchramaydi. Chunki shaxsni tanimaslik, nomini bilmaslik murojaatda uning belgili tomoni bilan atalishiga sabab bo'ladi va shu nutqiy jarayonda metonimiya sodir qilinadi. Masalan: *Xuv ko'zoynakka boq* (S.Abdugahhor), *Olim buva ertasiga ertalab yo'lakda shovqin soldi: Xoy shaytonarava!* (A.Qahhor). Bu gaplarning birinchisida *ko'zoynak* so'zi, ikkinchi gapda *shaytonarava* so'zi shu buyumga ega shaxsni atash uchun ko'llangan. Shunga o'xshash yana *chopon*, *shlyapa*, *do'ppi* kabi kiyim nomlari bilan murojaat qilish ham metonimiyaga ko'radir: *Jannatlar yaratgay tashlangan janda* (Cho'lpon). Bu gapdagi *janda* so'zining o'zlashgan paytidagi dastlabki ma'nosi yamoq kiyimni bildirgan. Keltirilgan misolda esa u faqir odamni ifoda etgan. Chunki faqir odamning libosi ham o'ziga yarasha bo'ladi. Shu aloqadorlikka ko'ra metonimiya sodir bo'lgan. Bundan tashqari, odam o'zidagi xarakterli xususiyati bilan ana shu xususiyatni o'zida mujassam etuvchi so'zda ifodalanishi mumkin. Bu so'z o'sha xususiyat nomi bo'lib, hosila ma'nosida shunday odamni ifodalaydi.

Xullas, metonimiya so'zga xos semantik-uslubiy hodisa bo'lib, undagi muayyan ma'no taraqqiyoti, yangi hosila ma'nosining narsa va ma'nolar o'rtasidagi aloqadorlikka ko'ra yuzaga kelish yechimi deb tushunilish kerak.

O'tmishdagi shon-shuxrat, muvaffaqiyat va parvozlar yaxshi narsa albatta. Ammo ular shunaqa narsaki, har bir yangi avlod bu shuhratga shuhrat qo'shib turmasa, eski yutuqlar qatorini yangilari bilan boyitib bormasa, yillarning qanoti qayrilib, parvozi susayib qoladi. Ustoz Ozod

Sharafiddinovning “Dovondagi o’ylar” kitobidan olingan ushbu so’zlar boshqa barcha masalalar qatori til muammosiga ham bevosita tegishli.

Darhaqiqat, ona tilimiz dunyodagi “asl tillarning manbai” bo’lgani rost. Mutafakkir bobolarimiz bu til sha’nini yuksaklarga ko’targani ham ayni haqiqat. Lekin buning o’zigina kifoya qilmaydi, albatta. Xo’sh, bugungi avlod bu borada e’tiboga loyiq qanday ishlarni qildi yoki qilayapti? Ona tilimiz taraqqiyotiga biror ulush qo’sha olayapmizmi?

“Milliy tilni yo’qotmay millatning ruhini yo’qotish” degan edi Avloniy. Chindan ham millat boshqa har qanday boyligini yo’qotsa o’rnini to’ldirish mumkin. Agar u tildan ayrilsa hamma narsadan, bor-budidan ayriladi: millat sifatida mavjud bo’lolmaydi: sho’rolarning bunga urunib ko’rgani ma’lum shukrlar bo’lsinki, ular bu muddaosiga erisha olmadi.

Abdurauf Fitrat ona tilimizga ta’rif berar ekan, uning “dunyodagi eng boy va eng baxtsiz til” bo’lganini ta’kidlaydi. Buni birinchidan shu til vakili bo’lgan mutafakkirlarning o’zga tilda asarlar yozgani, ikkinchidan tilga nisbatan loqaydligimiz bilan izohlaydi. Bu loqaydlik, taassuflarni, bugun ham qaysidir darajada davom etayotir.

To’g’ri mustaqillik tufayli ona tilimiz rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratildi u unga davlat tili maqomi berildi. Barcha sohalardagi ish yuritish hujjatlari o’zbek tilida olib borilishiga o’tilayapti, tilimizning rasmiy-idoraviy ushbu sezilarli darajada takomillashmoqda va hokazo. Lekin til shunday hodisaki, uning rivoji uchun qonunlar, farmonlar, qarorlarning o’zigina yetarli emas. Shu millatga mansub har bir shaxsning, ziyolining fidoiyligi, jonkuyarligi bo’lmasa, bu borada maqsadga erishib bo’lmaydi.

Tan olish kerak, xuddi shu mezondan yondashilsa, ona tilimizga bo’lgan bugungi e’tibor qanoatlanarli darajada emas. Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi ustoz ijodkorlarning matbuotlardagi

chiqishlarini e'tiborga olmaganda hatto ziyolilarning ham bu borada yetarlicha jon kuydirayotgani sezilmaydi.

Ona tilimizga nisbatan bunday munosabatning oldini olmasak, ertaga kech bo'ladi. Shu millatga mansub har bir ziyoli buning uchun mas'ul. Ona tilimiz maqomini yuksaltirsakkina, ertangi avlodlar oldida yuzimiz yorug' bo'ladi.

Sir emas bugun juda ko'p millatlar zamonaviy kompyuterlarni o'z tillarida yaratilgan dasturlar bo'yicha boshqarish imkoniyatiga ega. Bunga bizda ham katta ehtiyoj mavjud.

O'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mavjud. N.Shukurov bir maqolasida nutqdagi gaplarning tarkibida kelgan birikmalardan biror so'z ellipsis hodisasiga uchrashi natijasida so'zda nutqiy metonimiyalar sodir bo'lishini tahlil etadi. Tadqiqotchining kuzatishicha, bunday metonimiyalar asosan otlarda keng tarqalgan bo'lib, ular aniqlovchi, birikmalarning natijasida yuzaga kelgan.

Metonimiyaning morfologik hamda sintaktik stilistikaga oid xususiyatlari mavjuddir. "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" qo'llanmasida metonimiyaning aniqlovchilik hamda ot vazifasida kelgan ko'rinishlari asoslab berilgan.¹⁷ Otlarda metonimiyaning tilshunoslar metonimiyaning uchdan 12 gacha shakllari mavjudligini ko'rsatib o'tishganini ta'kidlaydi.

Metonimiya hodisasi R.Qo'ng'urov, S.Karimovning tadqiqotlarida o'zbek badiiy tili misolida qisman o'rganilgani bilan ajralib turadi. Agar T.Aliqulov, M.Mirtojiyev tadqiqotlarida nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa, yuqoridagi ikki tadqiqotda esa metonimiya asar tilida yozuvchi uslubini

¹⁷ Қўнғуров Р.ва бошқалар. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. ____ 102-бет.

yuzaga keltiruvchi hodisa sifatida tahlil etilgan. Ikkinchidan, bu ikki tadqiqotda metonimiya lingvistik hodisa ekanligiga ham alohida urg'u berilgan.

Demak, tadqiqotlar orasida metonimiya grammatik hodisa sifatida o'tilgan bo'lsa kerakli metonimiyani tasviriyl vositaning shakllari bilan qorishtirish holatlari uchrab turadi. 60-yillarda T.Aliqulov tadqiqotlarida metonimiya ko'p ma'nolilik hodisa sifatida qaraldi. 70-yillarga kelib esa M.Mirtojiyev tadqiqotlarida metonimiyaning bunday xususiyati yanada chuqurlashtirib o'rganildi. Har ikki tadqiqotda ham metonimiya hodisasi nazariy jihatdan asoslanishga harakat qilingan. Metonimiya hodisasi badiiy asarlardan olingan parchalar yoki ma'lum ijodkor qo'llangan tasviriyl vosita asosida emas, asosan tadqiqotlarning o'z qarashlaridagi so'zlarni tahlil etish jarayonida ko'rsatilgan. M.Mirtojiyev metonimiyani polisemiyaning bir shakli sifatida o'rganar ekan, unga shunday ta'rif beradi. "Metonimiya" bilan nomladoshlanuvchi o'rtasidagi aloqadorlik tufayli ko'chma ma'no hosil bo'lishidir" muallif bu fikrini misollarda asoslashga erishadi.

Metonimiya hodisasi M.Mirtojiyev katta tadqiqotining bir qismi sifatida o'rganilganligi sababli ham uning xususiyatlari ilmiy, nazariy jihatdan to'la ochilgan. Muallifning doktorlik dissertatsiyasida ham mazkur fikrlar rivojlantirilgan. Mazkur tadqiqotda metonimiyaning klassifikatsiyasi haqida fikr yuritilar ekan, muallif nomi asarning nomi bilan qo'llaniladi. Birinchi qo'llanmada o'zbek tilida metonimiyaning olti, ikkinchisida yetti xil ko'rinishi mavjudligi asoslab berilgan. Masala bir muallif tomonidan yoritilganligi sababli ham metonimiya hodisasining ko'rinishlari har ikki qo'llanmada ham bir xil ta'rif keltirilgan. Bu o'rinda metonimiyaning yetti xil ko'rinishini keltirish maqsadga muvofiq. Narsa (idish) ichidagi narsaning ma'nosi o'sha narsaga o'tkaziladi. Harakat yoki uning natijasi shu harakatni

bajarishdagi vosita, qurol bilan almashtiriladi. Biror narsani yasalgan material bilan almashtirish. Ma'lum mamlakatga, davlatda yoki ma'lum o'rinda yashab turgan kishilar ma'nosi shu yerga davlat yoki mamlakatda ko'chiriladi. Alohida olingan aniqlovchi to'liq narsani almashtiradi. Aniq tushuncha nomi o'rniga mavhum ma'noli ot qo'llaniladi.

O'zbek tilshunosligida tasviriy vositalarning "ironiya" deb nomlangan shakli xususida ham fikr yuritiladi. O'zbek tilshunosligida metonimiya hodisasi to'g'risida umumlashma hodisa beradigan tadqiqot yaratilganligining boisi ham shu asoslangan. Ya'ni "Tashqi yoki ichki tomondan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisaning nomi boshqa narsa yoki hodisaga ko'chiriladi" degan ta'rif keltiriladi. Demak, bu ta'rifda metonimiya hodisasi uchun narsalardagi tashqi yoki ichki tomondan aloqadorlik asos qilib olinmoqda.

Lug'atlarda metonimiyaga bir muncha mukammalroq ta'rif berilgan hamda uning beshta ko'rinishi xususida fikr yuritilgan. Metonimiyaga shunday ta'rif keltiriladi. Metonimiya (grekcha metonimiya "qayta nomlash" so'zidan olingan). So'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslangan ko'chimning asosiy turlaridan biri ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshatishsiz ko'chim. Metonimiya biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko'chiriladi, u boshqa nom bilan ifodalanadi, biroq bu nomlanish yoki narsalar o'rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi. Lug'atdagi metonimiyada predmetning tashqi ko'rinish yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga aloqador bo'lgan lekin bir-biriga o'xshamagan predmet belgilari chog'ishtirilishi haqida fikr bayon etilar ekan, metonimiyaning quyidagi ko'rinishlari mavjudligi ta'kidlanadi. 1) Kishi yoki narsaga xos xususiyat o'sha kishi yoki narsaning nomiga o'tkaziladi. 2) avtorning nomi uning natijasi shu harakatni bajaruvchi qurolning nomiga ko'chiriladi. 3) ma'lum

joydagi narsalar ma'nosi shu joyga ko'chiriladi. 4) Narsa predmetlarga shaxsni harakati ijodi ko'chiriladi.

O'zbek tili stilistikasida metonimiyaga shunday ta'rif berilgan. Metonimiya grekcha so'zdan olingan bo'lib, "boshqacha nom berish" degan ma'noni beradi. Biz yuqorida lug'atda qayta nomlash degan ta'riflar bilan tanishdik. Albatta qayta nomlash va boshqacha nom berish o'rtasida ma'no jihatdan qisman bo'lsada farq mavjud. O'zbek tili stilistikasida ana shunday ta'rif keltiriladi. Metonimiya hodisasi ham so'zlarning ko'chma ma'nosi bilan bog'liq. Ammo bu yerda asosan biror narsa yoki voqea hodisaning nomi boshqa biror narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Bu predmet yoki voqea hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi.

Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari qo'llanmasida ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek tili stilistikasi va mazkur qo'llanmadagi tilning tasviriy vositalari, qismlari professor R.Qo'ng'urov tomonidan yozilgan metonimiya hodisasining ko'chma ma'nosiga asoslangan.

Metonimiyada nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi alohida ikki narsa voqelik, harakat, holat, belgi kabi bo'lgani kabi sinekdoxalarda tamoman boshqachadir. Ma'no ko'chishi metonimiyada obyektlarning o'zaro aloqadorlik belgisiga qarab nomlashdan kelib chiqadi.

Metonimiyaga xos yo'l bilan ma'no taraqqiyoti ot, sifat, fe'l, olmosh, son va ravish turkumiga oid so'zlarda yuzaga kelgani holda, bu hodisaga xos yo'l bilan ma'no taraqqiyot faqat ot turkumiga oid so'zlarda yuzaga keladi.

Mazkur hodisani metonimiyaga nisbatan shuncha farqlari borligini nazarda tutib metonimiya emas, alohida ma'no ko'chishi deb atadik.

Mashhur adib, o'zbek she'riyatining iste'dodli shoiri Usmon Azim ijodiga nazar tashlar ekanmiz, shoir badiiy tasvir vositalarini o'z ongiga

qo'yib ishlatilganligi satrlarning jimjimadorligidan sezilib turibdi. Metonimiya shoir ijodidan keng o'rin olgan.

Mustaqillik sharofati bilan bu borada ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti "Umumiy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi" kafedrası mutaxassislari o'z oldiga shunday ezgu maqsadni qo'ygan.

Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan integrasiya va globallashuv jarayonida o'zbek tilini dunyoviy tillar darajasiga olib chiqish hayotiy zaruriyatdir.

Badiiy tasvir vositalaridan yana sinekdoxa, mubolag'a, kuchaytirish, allegoriya, simvol, ironiya (kesatiq) anitifraza va perifraza kabi turlari mavjud bo'lib hayotimizdagi go'zal tabiatimizda umuman borliqdagi barcha tasvirlarga sayqal berib, badiiy adabiyot janrini yanada boyitadi. Va hayotdagi voqea-hodisalarni o'quvchiga yaqqol aniq yetkazishga ko'maklashadi.

Usmon Azim she'rlarida tasviriy vositalarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa ko'chimlar va uslubiy figuralar she'riyatga bezak va ifor berib turibdi, ulardan biri metonimiyaga nazar tashlaymiz va ayrim misollarning tahlil talqinini beramiz.

***Olam oqqamiga sovuqqa to'lib,
Yugurdim shavqimdan qizidi badan.
Yugurdim yurakning jahdiga ko'nib,
Oyog'imga to'kdi maysalar shabnam***

Usmon Azim "Umid mangu" she'rida olam so'zi orqali butun xalq, olomon tushunchasini berayapti. Kishilar mavjudot so'ziga ko'chgan.

Odamlar tushunchasi matnda anglashilib turibdi va metonimiya hodisasi ro'y bergan.

***Qorday oppoq marmarday tiniq,
Vujudingi solayin chovut
Zal dahshatdan tushsin silkinib,
Zal qalqisin misoli tobut***

Yozuvchi bu hayajonli misralarida “Zal” so’zi orqali undagi odamlar tushunchasini berayapti. Bu sehrli o’xshatish orqali metonimiya hodisasi ya’ni ichki bog’liq tushuncha hosil bo’lgan zal qalqisin misoli tobut misrasida zal qalqimaydi bizning tafakkurimizda albatta undagi odamlar qalqiydi ya’ni metonimik tasviriy vosita hosila ma’no bergan.

***Ko’klam eshik qoqib turibdi,
Xabarchi boychechaklar kutmoqda
Tongda qirg’ovullar oyni,
U gul dasta bilan ufq uzra yurmoqda.***

Usmon Azim bu misralarda bahor faslini qalamga tarannum etgan. Bahor bu fasl uni ko’klam eshik qoqib turmoqda frazeologik birikma orqali metonimiya hosil bo’lgan. Aslida eshikni ko’klam emas bahor fasli qoqib kelishini hamma biladi va tushunadi. Bunda ichki bog’liqlik metonimiya hosil bo’lgan.

***Qarsaklar yog’ildi mening sha’nimga
Zarb! Zarb! Darvozabon tosh kabi qotdi
Bir surur xayqirib kirdi tanimga***

Stadion o'zin falakka otdi.

Yozuvchi bu misolda futbol o'yini haqida g'ururlanib yozadi va stadion o'zin falakka otdi misralarida metonimiya tasviri vosita sifatida qo'llangan. Bunda stadion emas, balki stadiondagi tomoshabinlar nazarda tutilgan.

***Sen buyuk aktyorsan. Besarhad Ulkan,
Jumla jahonni zabt etmog'ing mumkin.
Zal kuldi, yig'ladi mahoratingdan,
Men ham burchagimda yig'ladim, kuldim.***

Bu misralarda ham zal so'zi orqali juda nozik nafis badiiylik tasvirlangan. Bir aktyor timsolida uning yuksak mahoratiga baho berishmoqda. "Zal kuldi", "zal yig'ladi" birikmalari orqali undagi insonlar minglab xalq tushuniladi. Badiiy tasvir vositalaridan metonimiya o'z aksini topgan.

***Sezib tong bo'yini qushlar uyg'ondi,
Ko'zimga umr tegdi-qushlar uyg'ondi.
Sensiz tun o'tganda, kun kelar sensiz.
Bedor holida ham tushlar uyg'ondi.***

Tongda faqat qushlar emas lektun mavjudot uyg'onadi yana shoir bedor holida ham "tushlar uyg'ondi" birikmasi orqali "uyg'oq bo'lsamda tush ko'rgandekman" deb mashuqasiga ta'rif bergan. Sensiz menga tun va kun qorong'u. Faqat sen kelsang ma'nosida mashuqaga nisbatan metonimiya hosil bo'lgan.

***Mana, sahna uzra bir moviy falak,
Bir dala. Bitta sen. Bir navnihol qiz.
Unga sevaman deb aytishing kerak,
So'ng tamosha tugar. Zal cho'kadi tiz.***

Bu misralarda yozuvchi sevgi muhabbatini ulug'lab sening qarshingda zal tiz cho'kadi kabi misralarida zaldagi tomoshabin nazarda tutilgan va metonimiyani hosil qilgan.

***Ekilmagan nihol-hamisha aza!
Mening ham qolmadi o'zimda erkim,
Tavakkal g'ussadan yasab xulosa,
Gulday yuragimni men toshga ekdim.***

Yozuvchi bu misralarda badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalangan. “Ekilmagan nihol albatta solib, solib tamom bo'lishini ta'kidlashmoqda. Yashirin metonimik hodisa. Erki o'zida yo'q inson ifodalangan.

Iste'dodli shoirlardan biri Usmon Azimovdir. U 1950-yili Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug'ilgan. 1972 yilga kelib Toshkent davlat dorilfununini tugatgan. So'ngra u dastavval jurnalist sifatida Respublika radiosida, bir qator ro'znoma va oynomalarda, nashriyotlarda faoliyat ko'rsatgan. Hozirgi kunda esa Respublika Prezidenti devonida Davlat lavozimida ishlab kelmoqda.

Usmon Azimov shoir sifatida 70-yillarda matbuotda ko'rina boshlagan. 1978-yilga kelib shoirning birinchi to'plami “insonni tushunish” nomi bilan nashr bo'lgan. Shundan so'ng ko'plab she'riy to'plamlari chop etildi. Uning asarlarida hayotdagidek kuchli drammatizm o'quvchini hayajonga tortadi.

Eng muhimi uning she'r va dostonlarida ona Vatan ishq, ona xalq tashvishlari, kelajak muammolari goh zamonaviy mavzularda, goh tarixiy qiyosiy tarzda goh folklor an'analari ruhida o'zining chuqur realistik ifodasini topadi. Ha, shoir o'zi haqida aytganidek:

***O'ynoq-o'ynoq, og'ir-og'ir oqmoqda umrim,
Goh ko'z yumib, goh ufqqa bo'lmoqda umrim.
Bor jonini sadqa aylab she'rga qo'shiqqa,
Siz yo'qotgan sururlarni topmoqda umrim.***

Usmon Azim ijodi hozir kamolot bosqichida. Ishqilib, zavol topmasin, el-yurt uchun umrini, ijodini baxshida etgani rost bo'lsin.

Biz shoir ijodida badiiy tasvir vositalaridan metonimiyaga murojaat qilar ekanmiz, ularning ayrimlari bilan tanishtiramiz.

Shoshmaqomning qay shubasida
Yig'layotir bu kecha ko'nglim.
Musiqani bo'lmagin bedard,
Olim temir zirxini yirtar.

Bu she'rda mumtoz kuylarimizdan shoshmaqomga murojaat qilib, "Yig'layotir bu kecha ko'nglim" deb juda nozik metonimiyani qo'llagan. Ko'ngil emas inson yig'laydi "Shoshmaqom" ham kuy manosida ichki yashirin bog'liq holatda kelgan.

Olifto, nahs bosgan davra cho'ksin tiz,
Ketaman, tun bo'yi darbadar kezib.

Turnalarim bilan qolgani yolg'z,
Na bo'ldi, bu sening tashrifingmi she'r.
Boshimni tark etmas o'jar bir xayol,
Lobar qiz davraga yaxshi qoling der.
Va jo'nar hammani qoldirgancha lol,
Ishqiboz yigitgcha topolmas taqdir:
-Nimaga? Ne bo'ldi ? SHunday tunda... Bas.
O'jar qiz xo'rsinar:
-Tushuning axir.
Mark Byornes kuylaydi, hech kim tinglamas!
Qaytmagin! Yuraklar bordir olamda-
Ki, ular pok hislar yurti- vatani.
Ularni izlab top,
Hech bo'lmaganda,
Turnalar uchganda g'amgin boqqani.

Bu misralarda Usmon Azim “Davra cho'ksin tiz” deb butun uydagi kishilarni yashirin ichki bog'liqlik holda boryapti. Va sening tashrifingni, she'r? deb butun ijodini tushunish mumkin. Yoki Mark Byordes kuylaydi deb magnitafon kaseta nazarda tutilgan.

Bo'g'zimga bahaybat qayg'u tiqildi,
Ko'zimga yiqildi qopqora bulut.
Tizzamdan sirg'alib kitob yiqildi.
Birdan sinfga cho'kdi bir hayron sukut.

Partaga bag'rimni berib yig'ladim,
Sukunatga aytdim: Jon berdi Kumush.
Muallim jilmayib meni tingladi,

Boshimni siladi ham shod, ham xomush.

Yozuvchi Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” romanidagi tasirlanish va insondagi milliy kechinmalarini qayg’u tiqildi, qop-qora bulut birikmalari orqali ifodalangan. Bu ko’chma ma’nodagi birikmalar alohida olinganda ma’no bermaydi. Jon berdi Kumush xotima so’zida ham ijobiy obrazni nazarda turgan. Jon berdi ham fraziologik birikmadir.

Lablaring henidir shivirlar shodon
Birdan his, qilasan: Zamin Zamin emas,
Ufqlardan tortib ostonangacha
Shovullab, lovullab yotgan bir dengiz.
Ko’zingda porlaydi botayotgan quyosh.
Va birdan sezasan: odamlar emas,
Kemabir ko’chadan o’tmoqda sizib –
Ishxonaga emas, mayxonaga emas,
Amerika ochgani ketmoqda ular
Ularni hayqirib tabriklaging kelar,
Va birdan anglaysan:
Sen ham bir Kolumb.
Kolumb, yelkanlarni balandroq ko’tar.
Kolumb, xav - xatarga qilmagin parvo!
Kolumb, bu dunyodan odamlar o’tar,
Kolumb, odamlardan o’tmoqda dunyo.

Shoir bu misralarda badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan keng foydalangan. O’xshatish, sinekdoxa, takror va metafara bilan bir qatorda metonimiya ham o’z o’rnini topgan. Amerika, ochgani ketmoqda ular yoki

Kolumb yelkalarni balandroq ko'targan misralarida Kolumb deb o'sha joyni xalqi nazarda tutilmoqda.

She'riyatni qanday yurakdan siqib,
Kurashib, hayqirib yashash osonmi?
Dushmanku, ko'rinsa bo'ladi pachoq,
Hayiqib qoladi. Hatto do'stlar ham.
Yerdagi xudolik joniga tegib,
Mauzerni qo'lga olgani mahal,
Kutgandir:
Najotkor bir kimsa kelib
Ulkan shon - shuhratning soyasigamas
Birodarlik uchun qalaysan desa.

Shoirning bu she'rida mauzer so'zida metonimiya mavjud bo'lib, metonimik tushuncha hosil bo'ladi.

Tong titraydi kech ko'zakning quchog'ida,
Yulduzlarni o'chirmoqda gulgunshafaq
Jonim, qalbim she'riyatning pichog'ida
Zamin tilsim, osmon tilsim she'r beshavqat!
Men qiynaldim. Hayolimning qanotida
Dengizlarni ko'zatgancha tolib ichdim.
Yulduzlarni ko'p ko'rganman hayotimda
Dengizdagi yulduzlarni keldi quchgim.
Ko'kka boqdim, o't tutashdi jonim aro...
Qat-qat bulut qatlarida ne sir asror!
Hayrat ichra o'ldurgusi meni samo.
Ona zamin, ucha qalay qo'yib yubor!
Men yor dedim Laylimi yo!

Yoki endi tug'ilajak biror malak?
Mana men deb ko'z oldimda bo'ldi paydo,
Mana men deb she'rdan boqdi yakto yurak.
Yulduzlarni o'chirmoqda gulgun shafaq.
Tong titraydi kech ko'zakning quchog'ida
She'r yozilar. ... Qaynoq, senga bo'lsin sharaf.
Jonim, qalbim she'riyatning picheog'ida.
Hali butun ro'yi jahon she'r bo'lajak
Faqat bekor bilib orom quchog'ini
Bu dunyoni she'rga ko'mib yashash kerak,
Qalbgga sanchib she'riyatning pichog'ini.

Shoir Usmon Azimning bu she'ri juda ham ta'sirli vakishi qalbidan otilib chiqqan vulqonga o'xshaydi. She'r va uning tug'ulishi ta'siri butun dunyoni qamrab olgan sirlarini batafsil badiiy tasvir vositalari orqali ifodalangan.

Jur'at qiling bir oz, shirin-shirin so'z toping,
Shaboda, Nur, Osmon, Quyosh, Yer bo'ling,
Uning orzusi bo'ling, qayg'usi bo'ling.
O'shanda yelkangizga boshini qo'yib,
Hech kimga aytmagan ul aziz so'zni.

Mas'um lablarila balkim shivirlar
Sevaman!

Shoir bu she'rda insonni tushunish kerak mazmunida:
Shaboda – yoqimli bo'ling

Nur – mehr muhabbatli

Osmon – fel-atvori kengligi

Quyosh – kulib boqmoq.

Yer – keng dardga bag'ri keng bo'ling deb metoforik yashirin tushunchalarni ifodalagan ya'ni umumiy holatda bag'ri keng bo'ling degan ma'no anglashilgan.

Ruhim el aro uchar

Bir dasta nurga o'xshab

Nurga tashna ey xalqim,

Men uchunmi kiyding ko'k?

Yosh edim – dardlaringga

Malham bo'lolganim yo'q.

Hozir bu she'rida “Men uchunmi kiyding ko'k” misrasida aza tutish ma'nosini tasvirlagan o'zbek millatida aza bu ko'kkiyish bilan belgilanadi.

Tesha aka Saydaliyev xotirasiga

Go'yo xanuz tirikday

Siz, yana bolaligim

To'rtta havaskor bola

Termulamiz sezga jim.

Ko'zoynakdan boqadi,

Ko'zlaringiz mehribon:

Sizlar qanot yozsangiz –

Qo'shiq bo'ladi Surxon!

Hali mastsiz. Payt kelar

To'lin oyday to'lasiz.

Ishoninglar, hammangiz

Katta shoir bo'lasiz
Kunlar. ... Yillar o'tdilar.
She'riyat dilda bayroq,
Sevgi, sevgi ham keldi
Qalbga kirdi bir titroq.

Usmon Azim bu misralarda ko'chim va figuralardan ustalik bilan foydalangan va badiiy tasvir vositalaridan metonimiya ham o'z aksini topgan. “Qo'shiq bo'ladi Surxon” bu misralarda Surxon xalqi va uning gullab yashnashi nazarda tutilgan. Uni kuylash biz farzandlaringiz burchidir debshoir xotima yasaydi. Otash chiqqan uyni tashlab ketolmayman. Uning abadiy ruhi kezib yuradi. Ota-onaga bo'lgan farzandlik burchi va sadoqati jo'sh urib turgan bu she'rda “chiqqan uy”ni ma'nosini bermoqda yoki bunda shoir ona sharq “sharqiy xalqlar” ma'nosida Sa'diy, Ro'dakiylarni ulug' allomalar ya'ni ijodkor yozuvchi ma'nolarida metonimiyada misol bo'la oladi.

O'zbekning Andijon po'lkasi
Qozoqning jun do'mbirasi

kabi misralarda ham milliy musiqa va qozoqning milliy asbobi o'zifodasini topgan.

Men majnun,
Hayratda qotgandir sog'lar.
Ammo ishq vulqoni qo'zg'alar jonda,
Otilib kiranman yangi dostonga.

Bu misralarda shoir oshiq yigitni “majnun” deb ataydilar. “Men majnun” deb oshiq o'ziga ta'rif berganda albatta “majnun” so'zi oddiy oshiq emas obrazdagi “yigit” ko'zda tutilgan. “Hayratda qotgandir sog'lar”

jumlasida “sog’lar” sog’lom odamlar nazarda tutiladi. Ichki aloqalikka ega bo’lgan ma’no, hodisani o’zaro yaqinlashtirish yo’li bilan yuzaga keltiradi.

Men majnun,
Davrlar rostmi – beshavqat
Zarurat u yumushlar – toshday betuyg’u
bu – mening xatim-ku, mening xatim-ku!

Bu nozir jumlalarda o’xshatish, sinixdoxa va metonimiya mavjud bo’lib, ular quyidagich izohlanadi:

1. Oyog’ini artmay o’tayotir vaqt – o’xshatish;
2. Jonni topshirish – sinikdoxa
3. O’tayotir vaqt – metonimiya

Oyog’ini artmay o’tayotir vaqt,
Ko’ksimdan, chidamoq-eng ulug’vor ish.
Xatni yozib bo’ldim, hamma ishim taxt.
Qolgani, bor yo’g’i-jonni topshirish,

Bu ikki misrada metonimiya va o’xshatish mujassam bo’lib, zal-zamdagi insonlar – metonimiya, oyning yog’dusidan – o’xshatish.

Ko’m-ko’k tutun ichra suzib yurar zal
Oyning yog’dusiday quy oqar xazim.

Xulosa

Kuzatishlarimiz natijasidan shular ma'lum bo'ldiki, metonimiya, metofara va unga yaqin majozlardan farqli o'laroq, bir hodisadan ikkinchisiga ma'no ko'chirishda boshqacharoq qoidaga tayanadi. Metonimiya yoki ko'chim narsalar va ularning belgilarini o'zaro chog'ishtirish yo'li bilan emas, balki ma'lum darajada ichki va tashqi aloqadorlikka ega bo'lgan narsa-hodisalarni o'zaro yaqinlashtirish yo'li bilan yuzaga keltiradi. Narsa-hodisalar orasidagi bog'liqlik turli tumantili sababli bir hodisadan ikkinchisiga metonimiya orqali ma'no ko'chirish yo'llari va qoidalari ham xilma-xildir. Metonimiyaning bir turida biron - bir narsa ma'nosi va joylashtirilgan idish nomi orqali ifoda etiladi. Kishilar orasida "bir laganni bitta o'zi tushirdi", degan ibora yuradi. Bu yerda "lagan" deyilganda, undagi osh tushiniladi. Bunday iboralar xalq orasida keng tarqalib ketganligi sababli ularning metonimik xususiyati sezilmaydigan bo'lib qolgan. Poetic nutq esa o'z metonimik xususiyatini saqlagan so'z va iboralar tasviriy vositasiga aylana oladi.

Ba'zan metonimiya harakat yoki uning natijasi o'rnida mazkur harakat qurolining nomi keladi. Shoir Zilfiya o'zining Oybekka bag'ishlangan

poemasini “Quyoshli qalam” deb atagan. Bu yerda oddiy qalamning o’zi emas, balki shu qalam bilan Oybekka mansub bo’lgan ijod ko’zda tutiladi.

Gohida metonimiyada qandaydir narsa o’z nomi bilan ataladi. Shoir Xayriddin Salohning “Shahrim qizlari” nomli qo’shig’ida:

Muhayyo, Surayyo, Ra’no, Muqaddas,
Ko’zimni yashnatib kiyibsiz atlas, -

degan misralari bor. Bu yerda “atlas” so’zi shunday deb ataluvchi matoning o’zi emas, balki undan tikilgan ko’ylakni bildiradi.

Ba’zida metonimiya kishilar o’rnida ular yashayotgan yoki yig’ilgan joy, mamlakat nomi idrok etiladi. Hamid Olimjonning “Semurg” ertagidagi xon:

Yurtga xabar beringiz,
Aytingiz har biringiz,
Xon qiziga xaridor,
Parozod husniga zor,
Bo’lganlarga baxt kuldi, -

deydi. Bu yerda “yurt” deyilganda kishilar, xalq ko’zda tutiladi. Misollardan ayon bo’ladiki, metonimiyaning sanab o’tilgan turlari har xil yo’l bilan bir maqsadga, ya’ni tasvirlanayotgan narsa-hodisalarning muhim tamonini alohida ajratib ko’rsatishga dastiyorlik qiladi.

Umuman badiiy tasvir vositalari epitet, o’xshatish, metonimiya, metofara asarning mukammal chiqishi uchun muayyan vazifa o’taydi. Yozuvchilar bunday maxsus vositalar yordamida o’zlari tasvirlayotgan narsa-hodisalarning ba’zi bir tomonini xarakterlab berishga erishadi va ularning til xususiyatini o’rganadilar.

Shunday qilib, bir badiiy tasvir vositalarini o’rganishda faqat bittasiga metonimiyaga to’xtaldik, xalos.

Bitiruv ishining “uslubiyat va badiiy tasvir vositalari” deb nomlangan kirish qismida, uslubiyat sohasida erishilgan yutuqlar haqida batafsil gapirib, bitiruv ishining maqsad va vazifalari bayon etildi.

Bu soha keyingi mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlarga obzor berildi va xodisalar keltirildi.

Ilmiy izlanishning I bobida “Ko’chimlar va metonimiya” sarlovhasi bilan ish olib borildi.

Bizga ma’lumki tildagi ko’pgina so’zlar o’z ma’nosida boshqa ma’nolarni, hatto ba’zan o’z ma’nosiga qarama-qarshi bo’lgan ma’nolarni ifodalash uchun ham qo’llanadi. Bu predmetga belgigi boshqa bir predmetga ko’chiriladi yoki o’xshatiladi. Bu vaznfani hammasini “ko’chimlar” beksaradi. Buni o’rganis bilan birga asosiy maqsad e’tiborni badiiy tasvir vositalaridan metonimiyaga qaratdik va uning mohiyatini va uslubiy xususiyatini imkon qadar misollar bilan ochib berdik.

Bakalavr ishining II-bobida “Usmon Azim she’riyatida metonimiya” deb ataladi. Bunda Usmon Azim she’riyatidan metonimiyaga misollar tanlandi va tahlil qilindi. Metonimiya hodisasi ham so’zlarning ko’chma ma’nosi bilan bog’liq bo’ladi.

Shunday ekan yozuvchi ijodida qo’llangan va she’riyatga rang-baranglik kashf etgan badiiy tasvir vositalarining o’rni beqiyosligi haqida to’xtaldik.

Umuman olganda ko’chimlarga boy she’riyatdan biz izlangan metonimiyaga yetarlicha misollar tanlab tahlil talqini berildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч.–Тошкент: Маънавият, 2008. 173-бет.
2. Нурмонов А. Ўзбек тишунослиги тарихи.–Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 227-бет.
3. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.
4. Абдуллаев А., Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Тошкент: Фан, 1983.
5. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. –Тошкент: Фан, 1962.
6. Жамолхонов Ҳ., Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2000.
7. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Тошкент: Фан, 1977, 151-бет.
8. Юсуф Хос Хожиб // Қутадғу билиг. Транскрипсия ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. – Тошкент: Фан, 1972.
9. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. –Самарқанд, 1999.
10. Йўлдошев М. Фарқлаш – бадиий тасвир воситаси сифатида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
11. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975.
12. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент, 1995.

13. Мамажонов А., Махмудов У. Усулбий воситалар. –Фарғона, 1996.
14. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. – Термиз, 1994.
15. Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
16. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғиров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
17. Қиличев Е. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент, 1992.
18. Қўнғиров Р., Бегматов Е., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент, 1992.
19. Шукуров Н. ва бошқалар. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984, 134-бет.

Badiiy adabiyotlar ro'yxati

1. Усмон Азим. Сайланма. Тошкент, 1995 й.
2. Усмон Азим. Юрак. Тошкент, 2009 й.
3. Усмон Азим. Фонус. Тошкент, 2010 й.
20. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент, 2002. 213-215 бетлар.
21. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1978.
22. Каримов С. Ўзбек тили услубшуносликнинг ҳозирги босқичдаги муаммолари. Маърузалар матни. 2006.
23. Азизов А. Тилшуносликка кириш. –Тошкент: Фан, 1963.

24. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
25. Қўнғуров Р. ва бошқалар. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
26. Алиқулов Т. Метонимия ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.
27. Жабборов Н. Маърифат надир. – Тошкент, Маънавият, 2011.
28. Сувонова Р. Ўзбек тилида метонимия. – Тошкент, 2003.